



## HARAKATLI O'YINLAR ORQALI TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARINING AXLOQIY VA IRODAVIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

*Kodirova M.E.*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim fakulteti o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** harakatli o'yinlar, maktabgacha yoshdagi bola, axloqiy va irodaviy sifatlar, shakllanish, rivojlanish, sabr-toqat, chidamlilik, rivojlanish.

**Ключевые слова:** активные игры, ребенок дошкольного возраста, морально-волевые качества, формирование, развитие, терпение, выносливость, развитие.

**Key words:** active games, preschool child, moral and volitional qualities, formation, development, patience, endurance, development.

**Резюме:**

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda harakatli o'yinlar qo'llash orqali ularda jismoniy, axloqiy rodaviy fazilatlarining shakllanishi, harakatli o'yinlar va ularning qo'llanishi, harakatli o'yinlarning turlari va ularning bolalarda rivojlantirish vazifalari bayon etilgan.

**Резюме:**

В данной статье описано формирование физических и нравственных качеств у детей дошкольного возраста посредством использования подвижных игр, подвижных игр и их использования, виды подвижных игр и задачи их развития у детей.

**Summary:**

This article describes the formation of physical and moral qualities in preschool children through the use of mobile games, mobile games and their use, types of mobile games and their development tasks in children.

**Kirish.** Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarining yaxshi rivojlanishi ularda axloqiy va irodaviy sifatlarni mustahkamlashda harakatli o'yinlardan keng foydalaniladi, chunki bu o'yinlar orqali bolada sabr-toqat, chidamlilik, irodaviy fazilatlar shakllanib boradi. Bu o'yinlar orqali bolada og'zaki nutq yaxshi rivojlanadi va tengdoshlari bilar tezroq muloqatga kirisha olish imkoniyati vujudga keladi. Bu esa bevosita bolalarning ijtimoiylashuvidan xabar beradi. Harakatli o'yinlar orqali bolada yangi fikrlar, yangi o'yinlar paydo bo'la boshlaydi. Harakatli o'yinlarni ko'proq ochiq havoda o'tkazish tavsiya etiladi chunki bola bu o'yinlarda erkin harakatlana olishi muhim hisoblanadi.



Harakatli o`yinlar o`zi nima va nima uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda qo`llaniladi?

Alohida shuni ham ta`kidlash joizki, aksariyat xalq harakatli o`yinlari o`z mohiyati va mazmuni bilan mehnat va turli kasb ko`nikmalari, odob-axloq, ma`naviy-madaniy qadriyatlar, ong, xotira, diqqat, tafakkur, tasavvur, idrok kabi hislatlarni shakllantirishda muhim rol o`ynaydi. Bunday o`yinlarni ilmiy asosda yanada shakllantirish va ta`lim muassasalari va dam olish-sog`lomlashtirish maskanlarida o`tkaziladigan mashg`ulotlar, turli bayram tantanalari, to`y-tomoshalar va sayllar kabi tadbirlarda ulardan keng foydalanish milliy qadriyatlarimizni tiklash, sayqal topishiga turtki beradi, yosh avlod ma`naviyati, kuch-qudrati, jismoniy va ruhiy imkoniyatlarini charxlaydi. Ma`lumki, yurtimizda odil, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish sari shahdam qadam qo`yilayotgan hozirgi sharoitda erkin shaxs tarbiyasida juda keng imkoniyatlar yaratildi. Eng oddiy va ayni paytda eng murakkab masala -insonning sog`lom va farovon turmush tarzini ta`minlash ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylandi. Jamiyat a`zolarining ma`naviy qiyofasini shakllantirish, g`ururini uyg`otish, iftixor tuyg`usini tarbiyalash milliy qadriyatlarga tayangan mafkuraga asoslanadi.

Mustaqillik, yangilangan ruhiyat, ayniqsa o`sib kelayotgan yoshlar ongida dunyoga ilmiy asosda qarash imkoniyatini berdi. Axloqiy tarbiya negizida marosimlar, urf-odatlar va an`analarga yangicha munosabat tuyg`usi shakllandi. Bunday munosabatlarni shakllantirishda o`zbek xalq harakatli o`yinlarining o`ziga xos o`rni bor. Pedagogik va psixologik izlanishlar shu narsani ko`rsatmoqdaki, ta`lim-tarbiya jarayonida maktabgacha ta`lim tashkilotlarida alohida tizim yaratildi, o`zbek xalq harakatli o`yinlarini tarbiyaviy samaradorligi, ma`naviy-axloqiy va estetik qiymati to`g`risida yangicha qiyofa shakllandi. O`zbek xalq harakatli o`yinlari-bolaning hamma jismoniy xususiyatlarini har tomonlama rivojlantirish, sog`lom hayot kechirishning afzalliklari, shart-sharoitlari, tashabbuskorligini oshirish, harakat faoliyatiga bo`lgan tabiiy intilishlarini shakllantirish vositasi bo`lib xizmat qiladi. Harakatli o`yin odamlarga xos faoliyatning qiziqarli shakllaridan biridir. O`yin tushunchasi yosh bolaning shaqildoq bilan bajaradigan oddiy harakatlaridan tortib, kattalarning o`zbek jang san`ati, kurash, ko`pkari va boshqa juda ko`p sport turlarida amalga oshiradigan jismoniy faoliyatlarni o`z ichiga oladi. Harakatli o`yinlar muayyan maqsadga erishishga qaratilgan ma`lum qoidalarga amal qilinadigan ongli faoliyatdir. O`yinda, qandaydir moddiy boyliklar ishlab chiqarilmaydi. O`yinlar shaxs ruhiyatiga ta`sir etuvchi muhim ahamiyatga ega bo`lgan mujassamlashtirilgan ta`lim-tarbiya jarayonidir. Bu jaravonning asosini tashkil etuvchi bolalarning harakat faoliyati jismoniy rivojlanishiga, harakat ko`nikmalari va jismoniy sifatlarning shakllanishiga, organizmning funksional faoliyatini oshirishga va hissiy quvnoqlik tuyg`ularini kuchaytirgan



holda salomatlikni mustahkamlashga ijobiy ta'sir etadi. Harakatli o'yinlar bolalarni «Hayotga tayyorlanish maktabi» bo'lib, ularni jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlanishiga xizmat qiladi. O'yin bola ongi, tafakkurini o'stirib, xotira, diqqat, irodasini mustahkamlaydi, jismoniy, ruhiy, hissiy (emotsional) taraqqiy ettirishiga xizmat qiladi. Shuningdek, o'yin bolani katta hayotga tayyorlashda mashq vazifasini bajarib, kelajakda hayotda duch kelinadigan turli holatlarga ma'naviy tayyorlaydi. «Agar bola o'yinda halol o'ynasa, keyinchalik hayotda ham halol bo'ladi», yoki «Bolaning o'yindagi harakatiga qarab, uni qanday odam bo'lishini aytish mumkin», degan naqlar bekorga aytilmagan. Qisqa qilib aytganda, o'yin bolalarda ijodiy faollik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. O'yinlar tufayli bolalarda ularni o'rab turgan dunyoni tushunish va unga ta'sir qilish ehtiyoji shakllanadi, aqliy, axloqiy, irodaviy va jismoniy sifatleri shakllanadi, bir so'z bilan aytganda, o'yin yordamida inson tarbiyalanadi, shaxs sifatida shakllanadi. Harakatli o'yinlar nafaqat bolalar, balki katta yoshdagi kishilar hayotida ham muhim o'rin tutadi. Agar o'yinlar bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanishi, hayotga tayyorlanishi uchun kerak bo'ladigan bo'lsa, katta yoshdagilar uchun ular bo'sh vaqtlarini mazmunli va qiziqarli o'tkazish, hordiq chiqarish, sog'liqlarini mustahkamlash, chiniqishlari uchun hissa qo'shadi. Harakatli o'yinlarning ustuvorligi va hammabopligi shundaki, ulardan yil davomida, turli shart-sharoitlarda va ishtirokchilar yoshiga qarab mazmunan o'zgartirilgan hamda tabaqalashtirilgan holda foydalanish mumkin. Ana shu xususiyatlarni e'tiborga olgan holda xalq harakatli o'yinlarni tarixiy-ijtimoiy nuqtayi nazaridan quyidagicha tasniflash mantiqiy to'g'ri bolishi mumkin deb belgilandi. Ushbu tasniflanishi muvofiq moslashtirilgan mazkur harakatli o'yinlar, bir tomondan, bolalarni yil davomida sog'lomlashtirish imkoniyatini kengaytiradi, ikkinchi tomondan, ularda shu o'yinlar orqali jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish ehtiyojini hamda motivatsiyasini kuchaytiradi.

Hozirgi kunda o'yinlar ikki turga ajratiladi:

harakatli o'yinlar

sport o'yinlari.

Yugurishning har xil turlari, sakrash, uloqtirish va boshqa harakatlardan tashkil topgan o'yinlar harakatli o'yinlar deb ataladi.

Pedagogik amaliyotda harakatli o'yinlarning ikkita asosiy turi qo'llaniladi.

1. Ozod, ijodiy yoki erkin o'yinlarda, o'yin qatnashchilari o'zlari o'yin rejasini belgilaydilar va belgilangan maqsadni o'zlari amalga oshirishga harakat qiladilar. Go'daklarda, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda, ko'pincha, ular syujetli bo'ladi, rollar syujetga bog'liq holda taqsimlanadi, shuning uchun psixologlar ularni rolli deb ataydilar. Ular yakkalik va guruhli bo'lishi mumkin.



2. O`rnatilgan qoida asosida tashkillashtirilgan harakatli o`yinlar, rahbarlikni yoki bolalarning o`z sardorlari bo`lishini talab qiladi.

Ular mazmuni va murakkablik darajasiga ko`ra juda rang-barang:

a) oddiy, jamoasiz harakatli o`yinlar, qaysiki har bir qatnashchi qoidaga rioya qilgan holda, o`zi uchun kurashadi. Barcha o`yin faoliyati boshqalar ustidan tezlik, kuch, chaqqonlik kabi sifatlar orqali shaxsiy ustunlikka erishishga yo`naltirilgan. Bu o`yinlarda shaxsiy tashabbus ko`rsatish ustunlik qiladi;

b) nisbatan murakkab, jamoaga o`tish harakatli o`yinlari, o`ynovchilar, birinchi navbatda, o`z qiziqishlarini himoya qiladigan, lekin ba`zan, shaxsiy xohishga ko`ra, o`rtoqlariga yordam beradi, ularga ko`maklashadi, o`yinda hujumchidan saqlanish - qutilishga yordam beradi («dog`lash-qo`lni ber», «asir bilan qochib o`tish»). Ba`zan o`ynovchi maqsadga erishish uchun boshqa o`ynovchilar bilan vaqtincha hamkorlikka kirishi mumkin. Ayrim o`yinlarda bunday hamkorlik, hatto, qoidalarda nazarda tutilgan («Oq ayiq», «Bo`ri va qo`ylar»);

c) jamoali harakatli o`yinlarda o`ynovchilar alohida jamoa guruhlarni tashkil qiladi. Ular jamoalarning umumiy maqsadga erishishga yo`naltirilgan hamkorlikdagi faoliyatini ifodalaydi, barcha shaxsiy qiziqishlar o`z jamoasi qiziqishlariga bo`ysundirilgan. Har bir o`ynovchi faoliyati barcha jamoa muvaffaqiyati bilan bog`liq bo`ladi. Jamoali o`yinlarda o`z faoliyatini o`rtoqlari faoliyati bilan muvofiqlashtirish zarur. Ko`pincha, jamoali o`yinlarda faoliyatni muvofiqlashtirish va o`yinning umumiy rahbarligi uchun o`ynovchilar o`rtasidan jamoa sardorini ajratish zarurati paydo bo`ladi, ya`ni bo`ysunish barcha uchun majburiy hisoblangan. Ayrim jamoali o`yinlar yarim sport tavsifiga ega: ular harakat texnikasini, o`yin usuli bo`yicha juda murakkab va belgilangan qoidalar bo`yicha o`tkaziladi. Ba`zi o`yinlarda rollarni ixtisoslashtirish talab qilinadi. Bunday o`yinlar ayrim manbalarda yarim sportli deb ataladi. Ta`lim-tarbiya jarayonida xalq o`yinlarini keng qo`llash, har xil pedagogik vazifalari hal qilish uchun ish sharoitini hisobga olib, o`yinlarning ma`lum belgilari bo`yicha to`g`ri keladiganlarini maxsus saralash talab qilinadi. Xalq o`yinlarini tasniflash bo`yicha ham turli xil qarash, fikr, yondashishlar mavjud. Professor V.G. Yakovlev alohida o`yin guruhlarni birlashtirib, o`ynovchilarni o`yindagi o`zaro munosabatlari va o`zaro faoliyatlari tamoyillaridan kelib chiqib, jamoali harakatli o`yinlarni pedagogik tasniflashni tavsiya qiladi, ya`ni jamoali harakatli o`yinlarni ikkiga ajratadi:

1. Jamoalarni guruhlarga ajratmasdan.
2. Jamoalarni guruhlarga ajratish bilan.

Jamoalar guruhlarga ajratilmaydigan harakatli o`yinlar ikki (o`yinboshisiz va o`yinboshi bilan)ga ajratiladi. O`yinboshisiz o`ynaladigan o`yinlar: o`z o`rni va jamoa faoliyatidagi umumiy tartib uchun kurashadi. O`yinboshi belgilangan o`yinlarda:





va jismoniy sifatlarga ko'ra tasniflash jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlarning barcha shakllarida foydalaniladi.

5. Sportning alohida turlariga tayyorlaydigan o'yinlar. Harakatli o'yinlardan texnikaning alohida usullari va taktikani jismoniy sifatlarni tarbiyalashda, u yoki bu sport turi uchun zarur bo'lganlarini mustahkamlash va takomillashtirish maqsadida foydalaniladi.

6. O'ynovchilar o'zaro munosabatlariga bogliq holdagi o'yin;

a) o'ynovchilarning bevosita «raqib» bilan chiqishlari;

b) «raqib» bilan chegaralangan holda yaqinlashib o'yinlarga kirishish;

c) «raqib» bilan kurashish o'yinlari.

Ayrim pedagoglar o'yinlarni o'ynovchilarning o'zaro munosabatlari tamoyil bo'yicha taqsimlab, ularni «oddiy» bo'ladilar, har biri boshqalarga munosabatsiz maqsadda bo'ladilar, «murakkablari» esa o'ynovchilarni guruhlariga bo'lish bilan jamoalar, partiya. har biri o'z iamoasi qiziqishlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Shunday qilib harakatli o'yinlar qo'llash maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ayniqsa tayyorlov guruhi bolalari uchun muhim ahamiyat kasb etdai. Bu o'yinlarni chiroyli, mazmunli tashkil qilish esa maktabgacha ta'lim tashkiloti jismoniy tarbiya yo'riqchisidan yuqori mahoratni talab etadi. Bolalarda qo'llaniladiga harakatli o'yinlar ularning jismoniy va ruhiy salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa bolalarni har tomonlama mukammal qilib tarbiyalashda muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Harakatli o'yinlar orqali bola o'zi mustaqil fikrlashi, liderlik qobiliyatlarini shakllantirishi isbotlangan.

#### Adabiyotlar:

1. D.Zayniddinova., G.Usmonxodjaev, "Bolalar uchun harakatli o'yinlar". Tosh. "Yangi asr avlodi" (2006)
2. Mahkamjonov K., Salomov R., Ikromov I. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Darslik T; Iqtisod-Moliya (2008)
3. M.E.Kodirova, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida harakatli o'yinlarni tahkil qilish va tayyorlov bolalarda axloqiy va irodavuy sifatlarni shakllantirishdagi ahamiyati. „Eurasian journal of academic research” (2023)
4. Tulenova. X., Xo'jaev.P, Xo'jaeva K., Meliev O., Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. T; Iqtisod-Moliya (2012) o'quv qo'llanma.
5. T.Usmonxo'jaev., M. Toirova., X.Sagdiev., T.Sharipov. "Kichkintoylarga 200 ta harakatli o'yinlar" (2006)
6. T.S.Usmonxo'jaev., S.T.Islomova. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya" Tosh. – "Ilm ziyor" (2006)
7. Xo'jaev F., Raximqulov K.D., Nigmanov B.B., «Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi» Cho'lpon nashriyoti; Toshkent (2011)